

YO'LOVCHILAR VA YUKLARNI TASHISH SHARTNOMASINING ASOSIY SHARTLARI

1. Ushbu shartlar "MY FREIGHTER" MCHJ tomonidan "Centrum Air" savdo belgisi ostida amalga oshiriladigan Yo'lovchilar va yuklarga nisbatan ichki va xalqaro havo transporti xizmatlarini ko'rsatishda qo'llaniladi. Ushbu qoidalalar Tashuvchi va Tashuvchining xizmatlaridan foydalanadigan Yo'lovchilarning javobgarligi hamda huquq va majburiyatlarini belgilaydi. Aviakompaniyaning yuridik manzili: Toshkent sh., Mirzo Ulug'bek tumani, Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 262-uy, 100123.

Aviakompaniya tomonidan taqdim etiladigan chiptada Tashuvchining nomi qisqartirilgan holda qayd etilishi mumkin. Tashuvchining to'liq nomi va uning qisqarishi tarif ma'lumotnomalarida, tashish shartlarida, tegishli Tashuvchining qoidalari va jadvalida qayd etiladi. Tashuvchining manzili tashuvchining birinchi qisqartirilgan nomiga qarama-qarshi chiptada ko'rsatilgan jo'nab ketish aeroporti bo'lishi lozim.

2. Ushbu shartnoma quyidagi hujjatlarga asoslanadi:

– O'zbekiston Respublikasining Havo kodeksi va havo transporti sohasidagi faoliyatni tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari;

– Xalqaro havo transportida tashishlarga doir ayrim qoidalarni birlashtirish haqidagi konvensiya (Varshava konvensiyasi, 1929);

– Shartnoma bo'yicha tashuvchi bo'lman shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan xalqaro havo tashishlariga oid ayrim qoidalarni birlashtirish to'g'risida 1929 yilgi Varshava konvensiyasiga qo'shimcha konvensiya;

– Xalqaro havo transportida tashishlarga doir ayrim qoidalarni birlashtirish haqidagi konvensiyaga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi Gaaga protokoli, 1955 yil;

– 1929 yil 12 oktyabrda Varshavada imzolangan va 1955 yil 28 sentyabrda Gaagada tuzilgan Protokol bilan tuzatishlar kiritilgan Xalqaro havo transportida tashishlarga doir ayrim qoidalarni birlashtirish haqidagi konvensiyaga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi N1, №2, №4 Montreal protokollari, 1975 yil;

3. Tashish bo'yicha ushbu shartnoma shartlari, charter shartnomasi shartlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, jadval bo'yicha amalga oshiriladigan tashishga ham, charter shartnomalari bo'yicha amalga oshiriladigan tashishlarga ham tatbiq etiladi.

4. Mazkur shartnoma shartlari bo'yicha amalga oshiriladigan tashish hamda Tashuvchi tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar tashish va xizmatlar uchun haq to'lash uchun qo'llaniladigan tarif qoidalari, shuningdek, Tashuvchi tomonidan o'rnatilgan va ushbu shartnomaning bir qismi bo'lgan tashish qoidalari bo'ysunadi.

5. Yo'lovchining o'zi talab qilgan reysda o'rindiqni oldindan bron qilib qo'yishi tashish bo'yicha shartnomani tuzishning majburiy sharti hisoblanadi. O'rindiqlarni bron qilish va aviachiptani rasmiylashtirish vaqtida yo'lovchi aloqa uchun ma'lumotlarni (aloqa uchun, shu jumladan sayohat davomida yo'lovchi bilan aloqani ta'minlaydigan telefon raqami; yo'lovchining tanloviga ko'ra – yo'lovchi uchun doim ochiq bo'lgan elektron pochta manzili yoki yo'lovchi sayohat davomida aloqada bo'lib turadigan ishonchli vakilining telefon raqami yoki uning elektron pochta manzili) ko'rsatishi lozim.

6. Tashuvchi Yo'lovchi tomonidan talab qilingan tashish va boshqa xizmatlarni bron qiladi hamda yo'lovchi tomonidan shaxsiy ma'lumotlar majburiy taqdim etilganda aviachiptalarni rasmiylashtiradi. Tashuvchi bunday ma'lumotlarni oshkor qilmaslik hamda ularni qayta ishslash va saqlash uchun belgilangan barcha qonuniy talablarga riosa qilish majburiyatini oladi. Tashuvchi bron qilish va chiptani rasmiylashtirish operatsiyalari hamda boshqa hisobga olish hujjatlari talablarini bajara olishi, shuningdek, bilet bo'yicha keyingi xizmatlar hamda tashish shartnomasi shartlari o'zgarishi bilan bog'liq barcha operatsiyalarni amalga oshira olishi uchun Yo'lovchi o'zining shaxsiy ma'lumotlarini bron qilish va yo'lovchilarni ro'yxatdan o'tkazishning avtomatlashtirilgan tizimiga, boshqa avtomatlashtirilgan tizimlarga o'tkazishga rozi bo'ladi.

Tashuvchi yo‘lovchining shaxsiy ma’lumotlarini faqat davlat organlariga ularning so‘roviga ko‘ra jo‘nab ketish, yetib borish va tranzit mamlakatlarining amaldagi qonunchiligiga muvofiq, shu jumladan, bunday taqdim etish shaxsiy ma’lumotlarni transchegaraviy taqdim etishni nazarda tutgan holatlarda amalga oshiriladi. Shu bilan birga, so‘rovga ko‘ra xizmat topshirig‘i bajarilishi uchun yo‘lovchining shaxsiy ma’lumotlari taqdim etilgan davlat organlari, agarda jamoat manfaatlari ko‘zlangan muayyan tergovni o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan shaxsiy ma’lumotlarni olgan bo‘lsa, oluvchi sifatida qaralmasligi kerak.

7. Yo‘lovchining shaxsiy ma’lumotlarini qayta ishslash deganda, mazkur shartlar kontekstida Tashuvchi tomonidan tashish shartnomasi bo‘yicha o‘z majburiyatlarining bajarilishi doirasida, shuningdek, Yo‘lovchi uchun Tashuvchi xizmatlariga nisbatan individuallashtirilgan takliflar tayyorlash, jumladan, shaxsiy ma’lumotlarni yig‘ish, yozish, tizimlashtirish, to‘plash, saqlash, yangilash, o‘zgartirish, ajratib olish, foydalanish, uzatish, shaxssizlashtirish, bloklash, o‘chirish, yo‘q qilish maqsadlarida amalga oshiriladigan har qanday harakat yoki harakatlar jamlanmasi tushuniladi.

8. O‘rindiqlarni bron qilishda o‘rindiq alohida toifadagi yo‘lovchilarini (kichik yoshdagি bolalari bo‘lgan yo‘lovchilar, kuzatuvchisiz bolalar, jismoniy yoki ruhiy nuqsoni bo‘lgan yo‘lovchilar, bemor yo‘lovchilar, qo‘srimcha transport vositalariga muhtoj bo‘lgan harakatchanligi cheklangan yo‘lovchilar) tashish uchun talab qilinayotgan bo‘lsa, bunday ma’lumotlar bron qilish va aviachipta sotilayotganda hamda tashish va havo kemasi bortiga qabul qilib olish vaqtida xizmat ko‘rsatishda hisobga olinishi uchun Yo‘lovchi Tashuvchini barcha qo‘srimcha xizmatlar to‘g‘risida xabardor qilishi lozim. Alohida toifaga mansub yo‘lovchilar uchun o‘rindiqni bron qilish maxsus xizmat kafolatlangan holda ko‘rsatilishi uchun reys jadval bo‘yicha uchib ketishidan eng kamida 36 soat oldin so‘ralishi kerak.

9. Elektron yoki qog‘oz ko‘rinishida rasmiylashtirilgan aviachipta Yo‘lovchi va Tashuvchi o‘rtasida shartnomada tuzilganining dalolati hisoblanadi. Yo‘lovchiga uning so‘roviga binoan taqdim etilgan chiptada ko‘rsatilgan punktlar tashish yo‘nalishidagi kelishilgan to‘xtash punktlari deb hisoblanadi. Chipta unda ko‘rsatilgan reysga unda ko‘rsatilgan sanada va kimning nomiga rasmiylashtirilgan bo‘lsa, faqatgina uning uchun parvoz qilishga yaroqli hisoblanadi.

Agarda tarifda boshqacha ko‘rsatilmagan bo‘lsa, tashish uchun aviachiptaning amal qilish muddati tashish boshlangan sanadan boshlab bir yil yoki agar chiptaning birinchi parvoz kuponidan tashish uchun foydalanimasa, aviachipta berilgan kundan boshlab bir yilni tashkil etadi. Qaytish uchun chiptalarning amal qilish muddati (agar qaytish tarif qoidalarida nazarda tutilgan bo‘lsa) – rasmiylashtirilgan kundan boshlab bir yil. Pulni qaytarish chipta sotib olingan punktda, agarda bunday shaxs to‘g‘risida boshqacha buyruq bo‘lmasa, tashish haqini to‘lagan jismoniy yoki yuridik shaxsga amalga oshiriladi. Tarifda boshqacha ko‘rsatilmagan bo‘lsa.

10. Tashish shartnomasini tuzishda Yo‘lovchi aviachiptaga to‘lovnini amalga oshirish uchun qo‘llaniladigan tarif qoidalari bilan tanishishi hamda aviachipta sotishdan olinadigan Tashuvchining qo‘srimcha yig‘imlari, davlat soliqlari, bojlar va aeroport yig‘imlari haqida xabardor bo‘lishi lozim.

11. Tashish shartnomasini tuzishda va tashish shartnomasini bajarish bilan bog‘liq qo‘srimcha xizmatlarni ko‘rsatishni talab qilishda Yo‘lovchiga Tashuvchi tomonidan ko‘rsatiladigan qo‘srimcha xizmatlar uchun haq to‘langanini tasdiqlovchi standart to‘lov hujjati - EMD rasmiylashtiriladi va taqdim etiladi.

12. Tashish shartnomasini tuzgan Yo‘lovchi jo‘nab ketish, yetib borish va tranzit mamlakatlari davlat organlarining bunday tashishga oid barcha talablariga rioxha etishi, kirish, chiqish va boshqa tegishli hujjalarga (pasport, shaxsni tasdiqlovchi boshqa qonuniy hujjalalar, vizalar, tibbiy sertifikatlar va hokazo) ega bo‘lishi hamda Tashuvchi tomonidan belgilangan vaqtga qadar va parvozdan oldingi barcha davlat rasmiylashtiruvlari uchun yetarli muddat bilan aeroportga yetib kelishi zarur.

13. Yo'lovchi tashish yo'naliشining qaysidir bir qismida o'zi uchun bron qilingan o'rindiqdan foydalana olmasa, bu haqda Tashuvchini uning vakolatli agentiga murojaat qilish orqali xabardor qilishi shart. Agar yo'lovchi buni qilmagan bo'lsa, uning uchun bron qilingan o'rindiqdan foydalanmagan reys jo'nab ketganidan so'ng tashish yo'naliشining barcha keyingi qismlari yo'lovchini ogohlantirmagan holatda bronlash tizimi tomonidan avtomatik ravishda bekor qilinadi.

14. Agarda yo'lovchini yo'naliشdagi tutashuvchi punktdan tashish alohida chipta bilan rasmiylashtirilgan bo'lsa, Tashuvchi Yo'lovchining tutashuvchi reys bortiga joylashish imkoniyatini yo'qotgani uchun javobgarlikni zimmasiga olmaydi.

15. Tashuvchi tijoriy maqsadga muvofiqligini hisobga olgan holda amaldagi jadvalga o'zgartirishlar kiritishi mumkin, shuningdek, parvozlar xavfsizligi shartlari, aviatsiya xavfsizligi va/yoki jo'nab ketish, yetib borish va tranzit mamlakatlari davlat organlari talab qilgan hollarda, chiptada ko'rsatilgan reysni bekor qilish yoki kechiktirish, havo kemasi turini o'zgartirish, tashish yo'naliشini o'zgartirish, shu jumladan chiptada ko'rsatilgan puntklarga qo'nishlarni o'zgartirish yoki bekor qilish huquqiga ega. Bunda Tashuvchi Yo'lovchi va bagajni oqilona va yo'lovchi uchun maqbul muddatlarda, ushbu yo'lovchiga boshqa havo kemasiда uchish yoki boshqa transport turida tashishni taklif qilgan holda tashish uchun unga bog'liq bo'lган barcha choralarни ko'rish majburiyatini oladi. Tashuvchining jadvalida, aviachiptada va boshqa hujjatlarda ko'rsatilgan parvoz vaqtin kafolatlanmaydi va ushbu shartnomanining majburiy qismi emas.

16. Havo kemalari jadvali o'zgargan taqdirda, Tashuvchi havo transportida tashish shartnomasi imzolangan hamda jadvaldagi bunday o'zgarishlar ta'sir ko'rsatadigan yo'lovchilarni bu haqda xabardor qilish majburiyatini oladi, biroq tashuvchi xizmatlari bron qilinayotgan vaqtida yo'lovchi o'z aloqa ma'lumotlarini (telefon raqami, elektron pochta manzili va hokazo) taqdim etmagan bo'lsa yoki yo'lovchi tomonidan noto'g'ri yoki o'zining sayohati davomida bog'lanib bo'lmaydigan aloqa ma'lumotlari taqdim etilishi natijasida Tashuvchi Yo'lovchi bilan bog'lana olmasa, jadval, jo'nab ketish/yetib borish aeroportining o'zgarishi, reysning bekor qilinishi yoki boshqa har qanday o'zgarishlar to'g'risida xabardor qilinmaganligi uchun javobgarlikni zimmasiga olmaydi.

17. Yo'lovchini tashishga qabul qilishda Yo'lovchi:

- tashuvchi tomonidan belgilangan vaqtida ro'yxatdan o'tish uchun kelish;
- barcha zarur va amaldagi hujjatlarni (pasport yoki shaxsni tasdiqlovchi boshqa hujjat, vizalar, zarurat tug'ilganida, tibbiy ko'rik natijalari va hokazolar) taqdim etish;
- tashish uchun rejorashtirilgan barcha bagaj va yo'lovchining javobgarligi ostida havo kemasi bortida tashiladigan qo'l yukini ro'yxatga olish joyiga ko'rsatish;
- hujjatlar, pullar, zargarlik buyumlari va qimmatbaho buyumlarni bagaj sifatida ro'yxatdan o'tkazmasdan, o'zi bilan olib yurish;
- tashuvchi tomonidan belgilangan me'yordan ortiq tashilgan bagajni, shuningdek, tashuvchining belgilangan tariflariga muvofiq maxsus pullik yukni tashish uchun haq to'lash;
- parvoz oldidan xavfsizlik tekshiruvidan o'tish;
- samolyotga chiqish uchun tashuvchi tomonidan belgilangan vaqtida bortga chiqish darvozasiga kelish;
- tashuvchi tomonidan belgilangan yo'lovchilar va yukni tashish qoidalariga rioya qilish, tashish paytida salon va parvoz ekipaji a'zolarining talablariga bo'ysunish;
- qo'l yukini, agar u tashuvchi tomonidan belgilangan qo'l yuki uchun miqdori, og'irligi va/yoki o'lchami me'yordan oshsa, ro'yxatdan o'tgan bagaj sifatida tashish uchun topshirishga majbur.

18. Tashuvchi havo kemasini yo'lovchisi Tashuvchi qoidalariga ko'ra tashish uchun to'lov undiradigan bagaji uchun to'lovnini amalga oshirishdan bosh tortsa, u bilan tuzilgan havo transportida tashish shartnomasini berkor qilish huquqiga ega.

Tashuvchi, shuningdek, quyidagi holatlarda yukni tashishni rad etishga haqli:

- noto'g'ri qadoqlangan bo'lsa;
- havo kemasini, yuk, boshqa yuk, ekipaj a'zolari yoki yo'lovchilarga zarar yetkazishi mumkin bo'lган tarkibni o'z ichiga olsa;
- samolyotning bagaj va yuk bo'limlariga joylashtirishga imkon bermaydigan o'lcham va/yoki og'irlikka ega bo'lsa;
- jo'nab ketish, tranzit va yetib borish mamlakatlari tomonidan belgilangan cheklovlar, taqiqlar va xavfsizlik standartlariga muvofiq.

Tashuvchi, shuningdek, parvozni amalga oshirayotgan havo kemasining bagaj va yuk bo'limlarida bo'sh joy bo'lmasa, Yo'lovchiga ortiqcha yukini tashishga ruxsat berishni rad etishga haqli.

19. Borish punktiga/stop-overga yetkazilgandan so'ng yo'lovchiga tegishli bo'lган ro'yxatdan o'tgan bagaj faqat bagaj yorlig'ini taqdim etgan shaxsga beriladi. Agarda raqamlangan bagaj yorlig'i uchun yirtib olingan kuponni taqdim etishning imkonini bo'lmasa, bagaj yo'lovchiga ushbu bagaj haqiqatan ham tashish uchun ro'yxatdan o'tkazilganini tasdiqlovchi dalil-isbot taqdim etgan taqdirdagina berilishi mumkin.

20. Yo'lovchi shartnomasi amal qilish muddati mobaynida – yo'nalishdagi punktlardan birida yo'lovchi uchun o'rindiq band qilingan havo kemasini uchishiga qadar istagan vaqtida shartnomani bekor qilish hamda tashish uchun amalga oshirilgan to'lovnini tarif qoidalariga muvofiq ravishda to'liq yoki qisman olish huquqiga ega. Yo'lovchi tomonidan ko'ngilli ravishda parvozdan voz kechish holatida miqdori tashish tarifi to'lovi uchun qo'llanilgan shartlarga bog'liq bo'lган jarimaviy yig'im (neustoyka) undirilishi mumkin.

21. Tashuvchi quyidagi holatlarda tashish yo'nalishidagi har qanday punktda yo'lovchi tashish shartnomasini bekor qilish huquqiga ega:

- Yo'lovchi tomonidan uchish, yetib borish/tranzit mamlakatlari qonunchiligidagi belgilangan bojxonasi, chegara, sanitarni hamda borish/tranzit davlatiga kirish uchun zarur bo'lган havo transportida tashish, hujjatlarga aloqador boshqa talablar buzilsa;
- ro'yxatga olish jarayonida taqdim etilgan yo'lovchining shaxsini tasdiqlovchi hujjatlardagi ma'lumotlar bilan o'rindiq bron qilish hamda chipta va hujjatlarni rasmiylashtirish vaqtida ko'rsatilgan ma'lumotlar mos kelmasa;
- Yo'lovchining tibbiy hujjatlar bilan tasdiqlangan sog'liq holati havo transportida tashish uchun alohida shart-sharoitlarni talab qilsa, yo'lovchining o'zi, boshqa shaxslar xavfsizligiga tahdid solsa va Tashuvchiga tashuvchining qoidalariga muvofiq boshqa yo'lovchilarga xizmat ko'rsatishga imkon bermasa;
- yo'lovchi hujjat bilan tasdiqlangan alkogol yoki narkotik moddalar ta'siri ostida bo'lsa va uning psixologik va/yoki jismoniy ahvoli tashuvchining alohida yordamini talab qilsa, tartibsizlikni keltirib chiqarsa, boshqa yo'lovchilarga yaqqol noqulayliklar vujudga keltirsa, yo'lovchining o'zi, boshqa shaxslar va/yoki ularning mol-mulkulari, aviakompaniyaning mol-mulkulariga zarar yetkazadigan bo'lsa;
- yo'lovchi aviatsiya xavfsizligi talablari bajarilishi uchun parvozdan oldingi ko'rikdan o'tishdan bosh tortsa;

– yo‘lovchi havo kemasi bortida parvoz xavfsizligiga yoki havo kemasi bortida bo‘lgan shaxslarning hayoti yoxud salomatligiga va mol-mulkiga tahdid soluvchi o‘zini tutish qoidalarini buzsa;

– Yo‘lovchi Tashuvchi tomonidan belgilangan vaqtida ro‘yxatdan o‘tishga yoki reysni amalga oshirayotgan havo kemasi bortiga joylashishga kechiksa, hozir bo‘lmasa;

– Yo‘lovchi Tashuvchining qoidalarida belgilangan talablarni bajarishdan bosh tortsa.

22. Yo‘lovchi yetib borish mamlakati davlat organlarining tashishga oid barcha talablariga rioya qilishi, shuningdek, kirish, chiqish va boshqa tegishli hujjatlarga ega bo‘lishi kerak. Yetib borish mamlakatiga kirish rad etilgan taqdirda, yo‘lovchining o‘zi tashuvchiga yetkazilgan har qanday xarajatlar uchun javobgar bo‘ladi va tashuvchi yo‘lovchidan bunday rad etish natijasida yuzaga kelgan barcha xarajatlarni undirishga haqli.

23. Tashish shartnomasi buzilgan taqdirda aviakompaniya javobgarligi chegaralari.

“MY FREIGHTER” MCHJ aviakompaniyasining (“Centrum Air” tovar belgisi ostida) reyslarida tashishga nisbatan Varshava konvensiyasi, unga o‘zgartishlar kiritilgan 1955 yildagi Gaaga protokoli va 1975 yildagi Montreal protokoli hamda O‘zbekiston Respublikasining Havo kodeksi bilan belgilangan quyidagi javobgarlik chegaralari qo‘llaniladi:

– yo‘lovchining o‘limi yoki jarohati munosabati bilan 16 600 birlik Maxsus qarz olish huquqi (SDR). Istisno AQSHdan/AQSHga tashishlar yoki kelishilgan to‘xtash punkti AQSHda bo‘lgan tashishlarga nisbatan qo‘llaniladi va ushbu tashishlar uchun javobgarlik chegarasi 75 000 AQSH dollaridan past bo‘lishi mumkin emas. Ushbu javobgarlik chegarasi sud xarajatlari va chiqimlarini ham o‘z ichiga oladi, da’vo qo‘zg‘atilgan mamlakat qonunchiligidagi alohida nazarda tutilgan chiqim va xarajatlar bundan mustasno. Bunday holda, javobgarlik chegarasi sud xarajatlari va chiqimlarini hisobga olmaganda, 58 000 AQSH dollari deb hisoblanadi;

– yo‘qolgan, shikastlangan yoki kechiktirilgan ro‘yxatdan o‘tgan bagajning har kilogrami uchun 17 birlik Maxsus qarz olish huquqi va ro‘yxatdan o‘tkazilmagan bagaj (qo‘l yuki) uchun 332 birlik Maxsus qarz olish huquqi hamda faqatgina tashish shartnomasi bajarilishi vaqtida yo‘lovchi o‘z qo‘l yukini nazorat qilish imkoniyatidan mahrum bo‘lganda.

Qonun bilan belgilangan Tashuvchi javobgarligining barcha chegaralari uning agentlari, xodimlari yoki vakillariga, shuningdek, Tashuvchi tashishni amalga oshirish uchun foydalanayotgan havo kemasidagi har qanday shaxsga hamda uning agentlari, xodimlari yoki vakillariga nisbatan qo‘llaniladi.

Tashuvchining yo‘lovchilar, jo‘natuvchilar yoki oluvchilar bilan javobgarlikni kamaytirish bo‘yicha har qanday kelishuvi haqiqiy emas deb hisoblanadi. Tashuvchi amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan chegaralarga nisbatan javobgarlik chegaralarini oshirish to‘g‘risida shartnomada tuzishga haqli.

24. Tashuvchi yo‘lovchidan bagajini tashishga qabul qilib olganidan keyin ro‘yxatga olingan bagajning saqlanishi va uni ushbu bagaj ro‘yxatdan o‘tkazish punktida yo‘lovchiga topshirish uchun javobgar bo‘ladi.

Belgilangan javobgarlik chegaralaridan qat‘i nazar, yo‘lovchi reysga ro‘yxatdan o‘tish paytida o‘z bagajining qiymatini e’lon qilish va qo‘shimcha yig‘imni to‘lash orqali yukning yo‘qolishi, shikastlanishi yoki kechikishi uchun Tashuvchining javobgarlik chegarasini oshirishi mumkin;

Tashuvchi tashish shartnomasining umumiyligi shartlariga muvofiq tashishni amalga oshirayotganda, alohida e’tibor qaratish, ishlov berish va (yoki) qo‘riqlashni talab qiladigan buyumlar (ayniqsa, ro‘yxatga olingan bagajda tashiladigan nozik, qimmatbaho yoki tez buziladigan narsalar) uchun o‘z javobgarligini cheklashi mumkin. Yo‘lovchi pul, qimmatbaho buyumlar va hujjatlarni bagajga topshirmsandan, o‘zi bilan olib yurishi kerak.

25. Tashuvchining harakatlari bilan bog‘liq ravishda reys kechiksa yoki uchish bekor qilinsa, yo‘lovchi o‘rindiq bron qilgan reys bortiga yo‘lovchini joylashtirish rad etilsa, Tashuvchi yo‘lovchiga tashish muqobilini taqdim etishga majbur, reys kechikishi holatlarida esa yo‘lovchida paydo bo‘lgan qo‘srimcha xarajatlar uchun tovon puli to‘lash hamda zarurat tug‘ilganda, mehmonxonaga joylashtirish, mehmonxonaga yetib borish uchun transport va oziq-ovqat taqdim etish ko‘rinishidagi qo‘srimcha xizmatlarni ko‘rsatish majburiyatini oladi.

26. Tashish shartnomasi shartlari buzilgan taqdirda aviakompaniyaga shikoyat va da’volarni kiritish muddatlari.

Xalqaro tashuvvlarda yozma shikoyatlar Tashuvchiga quyidagi muddatlarda taqdim etilishi mumkin:

- qabul qilingan bagaj shikastlangan yoki yetishmagan taqdirda – o‘sha zahotivoq, lekin zarar yoki yetishmovchilik aniqlanib, bagaj olingen kundan boshlab 7 kundan kechiktirmay;
- yetkazib berish kechiktirilgan taqdirda - bagaj oluvchi ixtiyoriga topshirilgan kundan boshlab 21 kundan kechikmasdan;
- bagaj yo‘qolgan taqdirda — havo kemasi belgilangan manzilga yetib kelgan yoki tashish to‘xtatilgan kundan boshlab ikki yil ichida.

Ichki tashishlar uchun Tashuvchiga yozma shikoyatlar olti oy ichida berilishi mumkin. Bu muddat quyidagicha hisoblab chiqiladi:

- bagajning yetishmasligi yoki shikastlangani, shuningdek, bagajni yetkazib berishda kechikishlar uchun tovon puli to‘lash to‘g‘risidagi shikoyatlar bo‘yicha – bagaj topshirilgan kundan boshlab;
- bagajni yo‘qotganlik uchun tovon puli to‘lash bo‘yicha shikoyatlar bo‘yicha - bagaj belgilangan joyga yetib borishi kerak bo‘lgan kundan boshlab;
- qolgan barcha hollarda - da’vo arizasi berish uchun asos bo‘lgan voqeasodir bo‘lgan kundan boshlab.

Havo transportida tashish bilan bog‘liq bo‘lgan da’volar da’vogarning xohishiga ko‘ra - tashuvchining joylashgan joyida yoki tashuvchining tashish shartnomasi tuzilgan agentligi mavjud bo‘lgan joyda, belgilangan joyning tegishli sudiga taqdim etiladi.

Belgilangan muddatda yozma da’vo taqdim etilmagan taqdirda, tashuvchiga da’vo qo‘zg‘atilishi mumkin emas.

Tashuvchi quyidagi hollarda yo‘lovchining yoki uning qonuniy vakilining da’vosini qondirishni rad etishga haqli:

- yo‘lovchi yetkazilgan zararni tasdiqlovchi zarur dalillarni taqdim etmasa;
- da’vo berish muddati tugagan bo‘lsa;
- yetkazilgan zarar tashish shartnomasini bajarish natijasi bo‘lmasa;
- yo‘lovchining bagajni noto‘g‘ri qadoqlashi natijasida yetkazilgan zarar;
- bagajning shikastlanishiga yo‘lovchining bagajidagi narsalari yoki moddalar sabab bo‘lsa;
- bagajni tashishda qonunlar, normativ hujjatlar, farmoyishlar, davlat organlarining talablariga rioya qilish zarurati va/yoki ularning yo‘lovchi tomonidan bajarilmasligi natijasida yetkazilgan zararlar;
- yo‘lovchining bagaj tarkibiga Tashuvchining qoidalari bilan aviatashuvda taqiqlangan buyum yoki moddalarini kiritishi yoki yo‘lovchining Tashuvchi qoidalari buzishi natijasida yetkazilgan zararlar.